

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI HAQIDA

Surxondaryo viloyati, Termiz shahar.

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Shoymardonova Fotima Azamatovna

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning o'zbek hikoyachiligi rivojiga qo'shgan hissasi hamda o'zbek adabiyotiga hikoya janrining shakllanishi va rivojlanishdagi o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Abdulla Qahhor, hikoya, "O'g'ri", "Bemor", "Dahshat", "Qabrdan tovush".*

Har bir insonni yetuk shaxs sifatida shakllanishda yuksak ma'naviyat sohibi bo'lishida insonni ezgu maqsadlar tomon eltadigan, ongi va shuurini munavvar etadigan adabiy asarlar zarurdir. Buyuk adibimiz Cho'lpon tabiri bilan aytganda "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, ...o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak kirlarini yuvadurgan toza ma'rifat suvi, ...chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artib, tozalaydurgan buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur". O'z asarlari bilan adabiyot ixlosmandlarining yuragidan chuqur o'rin egallangan adiblardan biri Abdulla Qahhor hisoblanadi.

Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentabrida hozirgi Leninobod oblastining Asht rayonidagi qishloqlardan birida tug'ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchilik kasbi bilan shug'ullangan, ammo kasbdan oladigan daromad tirikchilik uchun kifoya qilmaganligi sababli u doim ish izlab qishloqma-qishloq ko'chib yurardi. Shu tufayli Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursux, Qudash, Buvayda, Tolloq, Olqor, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on kabi Qo'qon atrofidagi qishloqlarda kechadi. Bu qishloqlar deyarli bir - biridan farq qilmas, hammasida ham uch - to'rttadan kazo-kazolarni aytmasa, oddiy xalq fuqoro erta- yu kech mehnat bilan band paxta ekib, bunday yetishtirib bog' parvarish qilib umr o'tkazar lekin topgani o'ziga yuq bo'lmay nochorlik, qashshoqlik iskanjasida dars kechardi. Zulmatli hayotning behisob xotiralari keyinchalik jonli lavhalarda yorqin obrazlarda qaytadan gavdalanish uchun Abdulla Qahhorning zehniga o'rganishib qolgan edi. Abdulla Qahhor 10 yoshga to'lganda Buvaydadagi eski maktabga o'qushga kiradi, biroq ko'p o'tmay oila Oqqo'rg'onga ko'chadi. Oqqo'rg'onda maktabida qo'qonlik Muhammadjon domla qo'lida o'qiydi. Muhammad domla ilg'or fikrli ma'rifatparvar odam edi. Uning maktabida bolalar partada o'tirib bilim olar edi. U shogirdlarida Sharq adabiyotiga qiziqish uyg'otgan, ehtimol shu bois, Abdulla umrining oxirigacha Sa'diy, Xayyom, Xofiz, Bedil, Lutfiy, Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo'ldan qo'ymay mutolaa qiladi. 1922-1924- yillarda Abdulla Qahhor Qo'qon pedtexnikumida o'qiydi. Talabalik yillarida uning she'rlari va maqolalari tez-tez chop etilib turadi. U shu tariqa adabiyot olamiga kirib kela boshladi. Abdulla Qahhorning hikoya janriga kirib kelishi

1926-yil Gorkiy asarlari bilan tanishishi va bu asarlar unda hikoya yozish istagini kuchaytirganini aytadi. "Men - deb yozadi adib - rus tilini Gorkiy asarlari bo'yicha o'rgandim deb g'urur bilan ayta olaman. " Chalkash" hikoyasini o'qib chiqqach menda hikoya yozishga havas uyg'ondi." Chalkash " men uchun ijod namunasi o'qish o'rganish ishida qo'limdan tushmaydigan kitobim bo'lib qoldi " , - deydi Abdulla Qahhor.

Oilaviy musofirchilik tufayli yosh Abdulla bolaligidan "ichimdagini top", "odamovi", "uyatchan" bo'lib o'sdi. "O'tmishdan ertaklar" qissasining ikkinchi hikoyasi "Indamas" deb ataladi. Unda yozuvchi Yaypan qishlog'ining "Qo'shariq" mahallasida kechirgan voqealarni yodga oladi. Yosh Abdulla ko'chada bolalar bilan "Oq terak, ko'k terak" o'yinini o'ynashgani, uni ham "kerak" deb tanlashlarini, yugurib borib, safni buzishni orzu qilib, yuragi hapriqqanini yozadi. Ammo bolalar uni "Kelgindi" deb haqorat qilishadi. Bu so'z yosh Abdullaning jon-jonidan o'tib ketadi. Mana, yozuvchi nima deb yozgan bu haqda: "Kelgindi, kelgindi it", degan gapni Olim buvodan eshitganimda buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma'nosi ham borligini bilmagan edim. Cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi". Abdulla Qahhorning bolaligida unga va uning oila a'zolariga nisbatan bildirilgan mana shunday sovuq munosabatlar bo'lg'uvsu adibning kamgap, vazmin, indamas bo'lib qolishiga sababchi emasmikan, deb o'ylaymiz. Abdulla Qahhorning bolalik yillari eng qiyin zamonlarga 1917-yil voqealari, Birinchi jahon urushi, mardikor olish voqealari, ocharchilik, ishsizlik, xullas, jamiyatda u tuzumdan bu tuzumga o'tish davriga to'g'ri keldi. Abdulla Qahhor bolaligida ko'rgan-kechirganlari asosida nodir asarlar yaratdi. Jumladan, "Boshsiz odam", "Tomoshabog'", "Anor", "O'g'ri", "Bemor", "Dahshat", "Qabrdan tovush" kabi original hikoyalar yozdi. Ularning real, tarixiy zaminini, obrazlarning prototiplari "O'tmishdan ertaklar" qissasida qalamga olinganini anglash mumkin.

Oz so'zda ko'p ma'no ifodalash qobiliyatiga ega bo'lgan buyuk ijodkorning asarlarini o'qimagan, kitobxonlar kam bo'lsa kerak. Oddiy temirchi oilasida tug'ilib voyaga yetgan Abdulla Qahhor hikoyalarining qahramonlari ham oddiy, soddadil insonlar hisoblanadi. O'zbek nasriy adabiyotini, xususan hikoyachiligini yuksaltirgan, badiiy ijodda o'z ovozigga, o'z ijod uslubiga ega yozuvchining hikoya qilsa va romanlari nene buyuk qalam ahliga mahorat maktabi vazifasini o'tagan. Adib hikoyalarini shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin: tarixiy hikoyalar, hajviy hikoyalar, zamonaviy hikoyalar. Abdulla Qahhor «Xotinlar», «Asror bobo», «Ming bir jon», «Mahalla» hikoyalarida zamondoshlarining ma'naviy dunyosini, insoniy xislatlarini, axloqiy pokligini, ruhiy go'zalligini ko'rsatishga alohida e'tibor bergan. U hikoyalarida xalq maqollari va matallaridan o'rinli foydalangan. A.Qahhor hikoyalarini mutolaa qilar ekanman ko'z ongimda milliylikimizga xos bo'lgan urf - odat, an'analarimiz, samimiy tanti insonlar gavdalanadi. A.Qahhor hikoyalari so'z qudrati ila mehnatkash o'zbek xalqining su'rati, siyratini chizib beradi.

Abdulla Qahhorning " Boshsiz odam "hikoyasini tahlil qilar ekanmiz bexosdan xayolimizga Mahmudxo'ja Behbudiyning " Padarkush" yohud o'qumagan bolaning holi dramasi ko'z oldimizga keldi.Aynan bu ikki asarni yonma- yon qo'yishimizga

sabab,ikkala asarning ham bosh qahramonlari - Faxriddin hamda Toshmurod o'z shaxsiy fikriga ega bo'lmagan ,savodsiz,otaning ko'magiga tayanib qolgan ,erka ,tanti obrazlar sifatida gavdalanadi.Asar yakunida har ikkala qahramonning ham hayoti havas qilarli darajada yakun topmaydi.Abdulla Qahhor bu hikoyasi orqali o'z davridagi savodsiz,omi xalqning fojiaiy ahvoli birgina Faxriddin orqali beradi.Bundan tashqari,bu hikoyasi orqali o'sha davrdagi ayollarning erki o'zi qo'lida bo'lmaganligini asardagi Mehri obrazi orqali ko'rishimiz mumkin .Asarda Mehrining o'gay otasi qistovi bilan o'zining o'g'ay akasi Faxriddinga majburlab turmushga berilishi holatlariga guvoh bo'lamiz. Asarda Faxriddin hech qanday mustaqil fikrga ega bo'lmagan ,hatto shaxsiy hayotda ham otasining aqliga tayangan ,jilovini qaysi tomonga bursa o'sha tomonga yuradigan "manqurt" obraz sifatida gavdalanadi.Bu obraz o'zida majoziy yukni ham tashigan ,ya'ni o'zbek xalqining qullikdagi ahvoli ,Rossiya davlatlariga qaramligi,yagona bir fikrga ,yagona davlatga ega emasligiga ham ishoradir.

“Otning o'limi, itning bayrami” degan epegraf bilan boshlanuvchi “O'g'ri” hikoyasi adib asarlarining shu davr, tuzim nuqti nazaridan yozgan eng yaxshi hikoyalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchi bu hikoyasida o'zgalar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirib olgan zolim amaldorlar obrazini tasvirlaydi. «Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n - o'n beshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi» - kabi misralar hikoyaning tasir doirasini kuchaytirgan. Nasriy asarlarda maqol, matallardan foydalanish asarning emotsional ekspessivligini oshiradi. «O'g'ri» hikoyasida «Begim deguncha belim sinadi», «Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi», «Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz», «Quruq qoshiq og'iz yirtadi», «O'ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan» kabi maqollar qo'llangan.

Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi fojiaiy yakun topishi bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Kimlar uchundir Unsunning tun yarimida qabristonga borishi daxshat bo'lsa, men uchun ko'ngli to'la orzu - havas bo'lgan yoshgina qizning tiriklar qabristoni deb atalmish Dodxo xonadoniga sakkizinchi xotin bo'lishining o'zi bir dahshatdir. Ushbu hikoyada Unsinning «O'g'ri»dagi Qobil bobo, «Bemor»dagi Sotiboldidan farqi shuki, u o'z safdoshlariga o'xshab mute'lik asirasi va jaholat qurboni bo'lib yashashni istamaydi. Oddiy tegirmoncjini qizi bo'lsa ham jasoratli ekanini ko'rsatib qo'ydi. Dodxodek salobatli odam qabriston desa tizzasi qaltiragan bir paytda ayol bo'la turib tutqinlik musibatidan qutilish uchun qabristonga borishga rozi bo'ladi. Asar yakunida Unsun qo'rqchdan jon beradi. Ammo ozod bo'ladi.

Qahhor hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo'lib o'tgan voqea, real hayotning bir bo'lagi, epizodi bo'lib gavdalanadi; hikoyalarning ko'pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o'zi ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Biroq ular hayotning aynan nusxasi emas. «Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, dunyoda bundan oson ish bo'lmas edi, -deydi adib.-Hayotdan aynan ko'chirish kitobdan

ko'chirishday gap. Nusxa nusxa bo'lib qolaveradi. Bunday narsalardan originallik kutib bo'lmaydi. Originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, uni his qilish, unga o'ylab yurgan gaplarni singdirish, tilaklaringni qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi.

Xulosa qilib ayganda, odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor fojiiy mohiyatni ko'rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavalantirish Qahhor hikoyanavislik san'atining eng muhim jihatlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sanjar Sodiq. Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid. Toshkent, „Universitet“, 1996.
2. Marxabo Qo'chqorova Abdulla Qahhor - istiqlol adabiyotshunosligi ko'zgasida (monografiya) Toshkent : Akademnashr,2018
3. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
4. Abdulla Qahhor “Tanlangan asarlar”. Toshkent – 2015.
5. Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. Toshkent. „Universitet“, 1999.